

**ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI
O`QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH**

Ro`zimurodova Sitora Maqsiddin qizi

*O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi
magistranti sitoraruzimurodova050@gmail.com +998944301140*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanishning o`quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Nutq madaniyati o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqda adabiy til me`yorlariga amal qilishlari, o`z fikrini aniq, ravon va mantiqiy bayon eta olishlari bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda "Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o`ynash", "Bahs-munozara", "Insert", "Blits-so`rov" kabi interfaol metodlarning samarali jihatlari ko`rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada o`quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko`nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning o`rni hamda ularni qo`llash bo`yicha tavsiyalar bayon etiladi.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta`lim tizimiga qo`yilayotgan talablar ham yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Xususan, ona tili ta`limida o`quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki ularning nutq madaniyatini shakllantirish, muloqotga kirishish malakalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutq madaniyati insonning ma`naviy olami, tafakkuri va madaniyatini namoyon etuvchi eng asosiy ko`rsatkichdir.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda interfaol metodlar alohida o`rin tutadi. Chunki interfaol metodlar o`quvchilarni faollikka undaydi, ularning o`z fikrini erkin ifodalashiga, mulohaza yuritish, bahslashish va mantiqiy xulosaga kelish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. An`anaviy ta`limda o`qituvchi asosiy faol shaxs bo`lib kelgan bo`lsa, zamonaviy ta`limda o`quvchi ta`lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu esa interfaol metodlardan foydalanishni zaruratga aylantiradi.

"O`zbekiston Respublikasida ta`lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish"ga qaratilgan davlat dasturlarida ham yoshlarning muloqot madaniyatini oshirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tashabbuskorlik ko`nikmalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ona tili ta`limida bu vazifalarni samarali amalga oshirishning eng muhim yo`llaridan biri — dars jarayonida turli interfaol metodlardan unumli foydalanishdir.

Shuningdek, interfaol metodlar yordamida o`quvchilar o`zaro muloqot jarayonida adabiy til me`yorlariga rioya qilishni, fikrni aniq, mantiqiy va obrazli tarzda bayon etishni o`rganadilar. Natijada ularning og`zaki va yozma nutqi rivojlanadi, kommunikativ kompetensiyasi shakllanadi.

Ushbu maqolada ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlarning turlari, ularning o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishdagi roli va samaradorligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ona tili ta'limida nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi tilshunoslik va metodika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Mazkur sohada ko'plab olimlar tomonidan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Ustoz olimlarimiz B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida "O'quvchi-ta'lim- o'qituvchi" tizimida o'zaro hamkorlik munosabatalariga alohida to'xtalar ekan, verballik- ya'ni talaba -o'qituvchi muloqotida o'quvchining faolligi: o'z bilim va qobiliyatini namoyish qilishga sharoit va imkoniyataning mavjudligi haqida fikr yuritadi [1; 57].

Yana bir yosh tilshunos Samarqand davlat universiteti 3-kurs talabasi Malikova Malika Rauf qizining "Nutq o'stirish mashg'ulotlarini interfaol usullarda tashkil etish" nomli maqolasida "Davra suhbat", "Bahs-munozara" metodlari orqali darsni samarali yo'llar bilan tashkil qilish hamda o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish haqida tushuntirib o'tadi. Xuddi shuningdek, yosh tilshunos olimamiz Xursanova Marjona Baxtiyor qizining "Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning nutq va tafakkur qobiliyatini rivojlantirish" maqolasida esa, zamonaviy ta'lim tizimida nutq faolligi va tafakkur qobiliyatini rivojlantirish masalasini ko'taradi. An'anaviy yondashuvlarning kamchiliklari (o'quvchilarning passivligi) taqqoslanib, interfaol metodlarning ustunliklari asoslab berilgan. Bugungi kunda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va erkin nutqiy ifoda qilish — asosiy kompetensiyalar sifatida ta'limda muhim ahamiyat kasb etayotganini maqola asoslaydi. Ularning tadqiqotlarida ona tili darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuvning afzalliklari alohida ta'kidlangan.

Metodologik jihatdan mazkur mavzuni o'rganishda kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv va lingvodidaktik yondashuv asos qilib olinadi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki o'z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan. Kommunikativ yondashuv esa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishni bosh maqsad qilib oladi. Lingvodidaktik yondashuvda esa o'quvchilarga til hodisalarini o'rgatish bilan birga, nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu metodologik asoslar dars jarayonida turli interfaol metodlardan foydalanishni ilmiy-nazariy jihatdan mustahkamlaydi. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Rol o'ynash", "Bahs-munozara" kabi metodlar nafaqat o'quvchilarning bilimni kengaytiradi, balki ularning fikrni ravon, mantiqiy va madaniyatli tarzda ifodalash malakasini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarni faollashtirish, ularni erkin fikr yuritishga, adabiy til me'yorlariga amal qilib, nutq madaniyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir.

Shu bois maqolada interfaol metodlarning o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligini yoritish metodologik asos sifatida tanlab olindi.

Muhokama va natijalar. Bugungi ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni bilim olish jarayonining passiv ishtirokchisidan faol, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantirishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, dars jarayonida interfaol yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni o'z fikrini asoslash, dalillash va guruhda hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Biroq ayrim hollarda metodlarning samarasizligi ularning noto'g'ri tanlanishi yoki o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinmagan holatlar bilan bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi metod tanlashda sinf sharoiti va o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Quyida ayrim enterfaol metodlarni amaliy jihatdan qo'llanilishi hamda samarasi haqida fikr yuritamiz:

"Savol zanjiri" – bu interfaol metod bo'lib, unda o'quvchilar bir-biriga navbatma-navbat savol berishadi. Har bir savol oldingi savol-javobdan kelib chiqadi, natijada zanjir hosil bo'ladi. "Savol zanjiri" metodi o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu metodda o'quvchi nafaqat berilgan savolga javob beradi, balki o'zi ham yangi savol tuzadi. Bu jarayon ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashish va nutqiy faollik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Savolning zanjir kabi davom etishi darsni jonlantiradi, o'quvchilarni diqqatli bo'lishga majbur qiladi. Shuningdek, "Savol zanjiri" o'quvchilarni savol berish madaniyatiga, mulohaza qilishga va mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Ushbu metodning qo'llanilishi quyidagicha: Boshlang'ich savolni o'qituvchi boshlab beradi. Masalan, Ot so'z turkumi nima? O'quvchi javob beradi: shaxs, narsalarning nomini bildiradi. Keyin o'quvchi boshqa o'quvchiga savoldan kelib chiqib yangi savol beradi, masalan, otlarda kelishik qo'shimchalari nechta? o'quvchi javob beradi hamda yana bir boshqa o'quvchiga savoldan kelib chiqib yangi savol beradi: kelishik qo'shimchalariga misol ayting? Metod shu tariqa davom etadi. Mazkur metodning afzalliklarini quyidagicha ifodalash mumkin:

O'quvchilarda faollik va mustaqillikni oshiradi.

Savol berish va javob qaytarish orqali tanqidiy tafakkur rivojlanadi.

Nutqiy faoliyatni kuchaytiradi – o'quvchi savolni to'g'ri tuzishni, javobni lo'nda berishni o'rganadi.

Zanjir uzilmasligi uchun o'quvchilar diqqat bilan tinglashga majbur bo'ladi.

Darsni jonli, qiziqarli va hamkorlikka asoslangan qiladi.

"Savol zanjiri" metodi amaliy jihatdan samarali, chunki u o'quvchilarni faqat tayyor javob berishga emas, balki yangi savol tuzishga, mantiqiy fikrlash va mulohaza yuritishga o'rgatadi.

“Debat” metodi – bu o‘quvchilarni ikki yoki bir nechta guruhga bo‘lib, ma‘lum mavzu yoki muammo yuzasidan bahs-munozara qilish metodidir. U o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, dalil keltirish qobiliyatini, nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodning qo‘llanilishi quyidagicha:

Mavzuni tanlash – dolzarb va ikki xil nuqtai nazarga ega bo‘lgan mavzu belgilanadi. Masalan: “Internetning foydasi va zarari”, “Kitob o‘qishmi, kino ko‘rishmi samaraliroq?”. Guruhlarni ajratish – sinf “ma‘qullovchi” va “qarshilar” guruhiga bo‘linadi. Dalillar tayyorlash – har bir guruh o‘z pozitsiyasini dalillar bilan asoslaydi. Munozara – guruhlar navbat bilan o‘z fikrlarini bayon qiladi, dalil keltiradi. Baholash va xulosa – o‘qituvchi va sinfdoshlar munozara madaniyatiga, dalillarning ishonchliligiga qarab baho beradi. Mazkur metodning afzallilari:

- O‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantiradi;
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- O‘z fikrini dalillar bilan himoya qilishga o‘rgatadi;
- Tinglash va hurmat bilan javob qaytarish madaniyatini kuchaytiradi;
- Darsni qiziqarli va faol o‘tishini ta‘minlaydi.

Debat metodi o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi va tanqidiy tafakkurini shakllantiradi

Xulosa. Interfaol metodlardan foydalanish bugungi ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, erkin mulohaza yuritishga va o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, interfaol metodlar yordamida darslar jonli, qiziqarli va samarali o‘tadi, o‘quvchilar dars jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. O‘qituvchi esa an‘anaviy bilim beruvchidan ko‘ra yo‘naltiruvchi, hamkor va maslahat beruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, interfaol metodlar ta‘lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtiradi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, nutq madaniyati va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida bu metodlarni yanada boyitish, turli fanlarga integratsiya qilish va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish ta‘lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
2. Saidov M. O‘quvchi tafakkurini o‘stirishda ijodiy topshiriqlar. – Toshkent : TAT, 2000.-1 – son.
3. Sayfullayeva R.R. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. – Toshkent, 2008.
4. .Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Ziyodova T. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.

6. Xursanova Marjona Baxtiyor qizi. Interfaol metodlar orqali o`quvchilarning nutq va tafakkur qobiliyatini rivojlantirish. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnal- 2025.